



Yozuvchi Oybek va G'afur G'ulom publitsistikasining o'ziga xos xususiyatlari.

Askarova Nigora

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti jurnalistika
yo'nalishi 3-bosqich talabasi, nigoraaskarova78@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11401691>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 21-may 2024 yil

Ma'qullandi: 25-may 2024 yil

Nashr qilindi: 31-may 2024 yil

KEY WORDS

publitsistika, uslub, adabiy tanqid, ijtimoiy-iqtisodiy publitsistika, janr, Oybek.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek xalqining atoqli adiblari sanalgan Oybek va G'afur G'ulom publitsistikasining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan.

Kirish. Publitsistika sohasi haqida to'xtalganda, albatta, milliy publitsistikamizning tarixi haqida gapirish ham joiz. Sababi, hech narsa o'z -o'zidan paydo bo'lib bo'lmaydi. Milliy publitsistikamizning bugunga kungacha yetib kelishi ham oson bo'lmadi. Publitsistikasining rivojlanishi uchun tinmasdan, barakali ijod qilgan yozuvchi, publitsist va jurnalistlarning mehnatlari natijasi o'laroq bugun milliy publitsistikamiz ancha yuqoriga ko'tarildi. Xuddi shunday, o'z uslubi, o'zining beqiyos asarlariga ega bo'lgan adiblarimiz Oybek va G'afur G'ulomdir. G'afur G'ulom o'zining "Shum bola" qissasi orqali o'zbek nasrini qanchalar yuqoriga ko'targan bo'lsa, Oybek o'zining "Navoiy" "Qutlug'qon" romanlari bilan o'zbek romanchilgini rivojlantirdi.

O'rta Osiyo xalqlari tarixida publitsistika ancha qadimiydir. Publitsistika

xususiyatlari "Qobusnoma"da yaqqol ko'zga tashlanadi. Navoiyning "Majolis unnafois", "Munshaot", "Mahbub ul-qulub" asarlarida publitsistikaning tugal

xususiyatlari uchraydi. Navoiyning Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad, Hasan Ardasher va boshqa haqidagi adabiy portretlarini publitsistik ocherklar deb atash

mumkin.[1] Chindan ham shunday, O'rta Osiyo xalqlari publitsistikasi anchayin qadimiy sanaladi. 20-asrda ham o'zining ijodi bilan publitsistikasimizga yetarlicha hissa qo'shgan adiblar sifatida biz Oybek va G'afur G'ulomni ayta olamiz. Oybek ijodi juda o'ziga xos, serqirra. «Oybekning serhosil, o'tkir ijodkorligini bizning adabiyot tarixida kimga o'xshatish mumkin?» so'rog'iga G'afur G'ulom: «Oybekning o'ziga, faqat Oybekka o'xshatish mumkin»⁵⁴, — deya javob berib, uning iste'dodini yuksak baholagan edi. Hamid Olimjon esa ijodkorga: «Prozada shoiru, poeziyada prozaikdir», — deya ta'rif bergandi.[2] Chindan ham shunday, har bir yozuvchi o'zining uslubi va yo'nalishiga ega shuning uchun ham hech qaysi adibning ijodini

boshqasi bilan solishtirib yoki tenglashtirib bo'lmaydi. Shoir hayot haqiqatini falsafiy teranlik, publitsistik

ko'tarinkilik va jo'shqinlik bilan kuyladi. Ana shuning uchun ham mashhur adib A. Fadeev: «G'afur G'ulom o'zbek she'riyatining eng o'ziga xos va mislsiz hodisalaridan biridir... Eng latif lirikadan oratoriyagacha — uning diapozoni ana shunday. G'afur G'ulom she'rlari hamisha zo'r fikr va teran tuyg'ular bilan sug'orilgan. U tom ma'nosi bilan chinakam va katta shoirdir»⁴⁶, — deb yozgan edi.^[3]

Chindan ham, G'afur G'ulom ijodida nafaqat nasr balki lirika uchun sanalari ijod mahsullari mavjud. Uning dramaturgiya sohasi uchun ham yaratgan bir nechta pyesalari mavjud. G'afur G'ulom o'z davrida xalqimiz turmush tarzini jonli ifodalay olgan, ichki kechinmalarini, dardini badiiy obrazlar orqali yoritgan. Ijodkor adabiy merosini tahlil qilgan barcha adabiyotshunos olimlar uni «o'zbek poeziyasining oqsoqoli», deb ta'riflashgan.^[4] Uning uslubida jonlilik ustunlik qilgan. Chunki, "Shum bola" qissasida ham G'afur G'ulom eng kichik epizidlarni ham jonli tasvirlagan. Hattoki, mahalladagi har bir jinnining o'ziga xos odatlari-yu ismigacha nomma-nom tasvirlagan. G'afur G'ulomning dunyo qarashi va badiiy didining shakllanishida Vladimir Mayakovskiy asarlari katta ta'sir ko'rsatgan. G'afur G'ulom o'zining maqolalaridan birida shunday yozadi: "Men... rus mumtoz ijodkorlarini bilaman va ularni sevaman va ularning ko'plab asarlarini ona tilimga tarjima qildim. Lekin "men uchun vazn, lug'at, timsol, she'ning ohang tuzilishi sohaslarida eng serqirra va cheksiz imkoniyatlarni ochgan" Mayakovskiyning shogirdiman, deyishni istayman".^[5] Ushbu fikrlar ham G'afur G'ulomning publitsistik uslubining boshqalardan ajralib turishini isbotlaydi. Uslubiy ajralib turishda Oybek ham G'afur G'ulomdan qolishmaydi. Sababi, Oybek ijodini tahlil qilar ekanmiz uning naqadar rang-barang ekaniga guvoh bo'lamiz. Chunki, Oybek ham o'z ijodini hikoya yozishdan boshlagan. Va aynan shu hikoyalar uning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun ko'prik vazifasini o'tagan. Bekorga Umarali Normatov: "Oybek tarjimalari, xususan, «Yevgeniy Onegin» tarjimasida adabiyotimizda ulkan voqea bo'lgan. Uning adabiyotshunoslik, tanqidchilik sohasidagi faoliyati, Navoiy hayoti va ijodiga oid tadqiqotlari bir yetuk tanqidchi, adabiyotshunos umr bo'yi erishishi, ulgurishi qiyin, ko'plar uchun orzu bo'lgan cho'qqidir. Men aminmanki, Oybek ijodiy merosi faqat lirika va poemalardan iborat bo'lganida ham u adabiyotimizning klassigi bo'lib qolaverar edi", — demagan edi.^[5]

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalqining ikki buyuk dahosi ijodiy me'rosini o'rganish har birimiz uchun sharaf. Sababi ular qoldirgan noyob va qimmatli asarlar hali uzoq yillar millatimiz ma'naviyatini yuksaltirish uchun xizmat qiladi. Aslini olganda, ikkala adibning ham asarlari allaqachon vaqt sinovidan o'tgan. Va shuning uchun ham xalqimiz tomonidan sevib o'qiladi. Oybek va G'afur G'ulom o'z ijodida hech kimga ergashmagan va o'xshamagan holda qalam tebratgani uchun ham ularning publitsistik uslubi ham barchaning ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saydulla Mirzayev. «X X asr o'zbek adabiyoti». «Yangi asr avlodi». 2005-yil.
2. Saydulla Mirzayev. «X X asr o'zbek adabiyoti». «Yangi asr avlodi». 2005-yil.
3. Saydulla Mirzayev. «X X asr o'zbek adabiyoti». «Yangi asr avlodi». 2005-yil.
4. Kuldirib yig'latgan, yig'latib kuldirgan shoir. Madaniyat. 10 May 2023. 1074 Matn: Нодир Махмудов.
5. Yozuvchi Odil Yoqubov — tanqidchi Umarali Normatov suhbat